# XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING

# Q A R O R I

Ishtixon ko‘chasi, 4-uy +998 66 629 1521 qarshiyevmamur3@gmail.com

2024-yil 24-may VI-121-92-7-95-K/24 Ishtixon tumani

**Tumanda aholi bandligini ta’minlash, kam ta’minlangan oilalarni kambag‘allik darajasidan chiqarish, doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga chiqib ketgan fuqarolar bilan ishlash, “Sayxunobod tajribasi”ni joriy etish, aholi kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish, “Mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish va ularning mas’uliyatini oshirish yo‘nalishlari yuzasidan tuman sektor rahbarlarining hisoboti haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5633-sonli Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59-sonli Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli Qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli Qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7-sonli Qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 14-maydagi 16-879-sonli topshiriq xatiga, Samarqand viloyati hokimining 2024-yil 14-maydagi 42/01-09-sonli xatiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 121-sessiyasi,

**QAROR QILADI:**

1. Tumanda aholi bandligini ta’minlash, kam ta’minlangan oilalarni kambag‘allik darajasidan chiqarish, doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga chiqib ketgan fuqarolar bilan ishlash, “Sayxunobod tajribasi”ni joriy etish, aholi kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish, “Mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish va ularning mas’uliyatini oshirish yo‘nalishlari yuzasidan tuman sektor rahbarlarining hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi, tuman sektor rahbarlari, korxona, tashkilot va tijorat banklari rahbarlari joylarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 14-

mart kuni Sayxunobod tumaniga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan yig‘ilishida berilgan topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarilishini ta’minlash bo‘yicha shaxsan javobgar ekanliklari belgilansin.

3. Aholining muammolarini yechish yo‘nalishlari, “Sayhunbod tajribasi”ni samarali joriy etish hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish va ularning mas’uliyatini oshirish bo‘yicha 2024-yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Ishtixon tumanida 2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda bandligini ta’minlash bo‘yicha sektorlar kesimida oyma-oy reja grafik 2-ilovaga;

Ishtixon tumanida 2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda bandligini ta’minlash bo‘yicha sektorlar kesimida oyma-oy va tarmoqlar kesimida reja grafik 3-ilovaga;

2024-yilda “2 million aholini biznesga jalb qilish” bo‘yicha Ishtixon tumanida oyma-oy reja grafik 4-ilovaga;

2024-yilda “2 million aholini biznesga jalb qilish” bo‘yicha Ishtixon tumanida oyma-oy va yo‘nalishlar kesimida reja grafik5-ilovaga;

Ishtixon tumanida 2024-yilda xususiylashtirish dasturlariga asosan sotilishi belgilangan davlat ko‘chmas mulki ob’ektlarini ommaviy savdolarga chiqarish reja-grafigi 6-ilovaga;

Ishtixon tumanida 2024-yilda xususiylashtirish dasturlariga asosan sotilishi belgilangan davlat ko‘chmas mulki ob’ektlari ro‘yxati 7-ilovaga;

Ishtixon tumanida 2024-yil davomida xorijdan qaytadigan mehnat migrantlari to‘g‘risida reja-jadval 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi, tuman sektor rahbarlari, tumandagi tijorat banklari rahbarlariga:

- ikki hafta muddatda tuman darajasidagi har bir mahalladan tanlab olingan xonadonlarni daromadlarini oshirish maqsadida fuqarolarni daromadli mehnat bilan bandligi ta’minlash;

- bir hafta muddatda ish o‘rinlarini tashkil etish va aholini bandligini ta’minlashda tijorat banklari tomonidan mijozlari bilan uchrashuvlar o‘tkazish grafigini ishlab chiqish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman sektor rahbarlariga:

- har haftada kamida bir marotaba sektor hududiga chiqqan holda jismoniy shaxslar bilan ularning ijtimoiy masalalari hamda yuridik shaxslarning vakillari bilan tegishli faoliyat sohalari kesimida qabullar o‘tkazishni nazoratga olish;

- sektor rahbarlari va “mahalla yettiligi”ning aholi muammolari bilan ishlash tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bunda, vertikal tizim asosida hududidagi mahallalarda “Yettilik” faoliyatini muvofiqlashtirish va amaliy ko‘maklashib borish hamda o‘zaro axborot almashish, muammolarini eshitish va hal etish choralarini ko‘rib borilishini ta’minlash;

- sektorlar rahbarlari tomonidan aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish hamda ushbu yo‘nalishda tumandagi barcha korxona va tashkilotlar, mahallalar, ta’lim muassasalarida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazishga alohida e’tibor qaratish;

- tumanda jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etish hamda yil yakuniga qadar tumandagi mahallada jinoyatchilikni jilovlab, qisqartirish bo‘yicha tizim yaratish;

- aholi muammolarini hal etish samaradorligini oshirish maqsadida tumanda faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilot va idora rahbarlari tomonidan murojaatlar soni ko‘payib borayotgan hamda aholi yashashi uchun yetarli sharoitlarga ega bo‘lmagan mahalla fuqarolar yig‘inlarida sayyor qabul va yoshlar uchrashuvlarini tasdiqlangan reja-grafiklar asosida o‘tkazishni taʼminlash;

- sektorlar shtabi tarkibiga kiritilgan idora va tashkilotlarning shtabda to‘liq ish faoliyatini olib borishlarini ta’minlash;

- sektorlar rahbarlari tomonidan hududlarga biriktirilgan kotiblar, sektor shtabi a’zolari va mahalla fuqarolar yig‘inlari xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar tahlilini olib borish;

- har oyda bir marta mazkur qaror ijrosi bo‘yicha tuman Kengashiga axborot kiritib borish hamda aloqador tashkilotlar ishtirokida muhokama qilinishini tashkil etish;

- qaror ijrosini ta’minlashda sustkashlikka yo‘l qo‘yib kelayotgan tashkilotlar rahbarlariga nisbatan belgilangan tartibda choralar ko‘rish bo‘yicha yuqori turuvchi tashkilot rahbarlariga takliflar kiritib borish vazifasi topshirilsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 14-mart kuni Sayxunobod tumaniga tashrifi davomida hamda o‘tkazilgan yig‘ilishida berilgan topshiriqlar bo‘yicha belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatib, bajarilmagan vazifalar bo‘yicha tuman korxona, tashkilotlariga tegishli tartibda “deputatlik so‘rovlari” yuborish, muammolarni tuman Kengashi sessiyaga olib chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 4-apreldagi “Mahallalardagi muammolarni hal etishda Xalq deputatlari mahalliy Kengash deputatlari va senatorlarning “Mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-706-IV-sonli Qarori asosida mahalla faollari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- Kengash qarori bilan tasdiqlangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha har oyda bir marta tegishli tashkilotlar ishtirokida doimiy komissiya yig‘ilishlarida tegishli mas’ul rahbarlarning Hisobotlarini eshitib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Tursunov), “Ishtixon ovozi” gazetasi muharriri (M.Rabbimova) mazkur qaror ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining barcha doimiy komissiyalari, ijrosini ta’minlash tuman hokimligi, tuman sektor rahbarlari, tijorat banklari rahbarlari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

KIYAMOV NURALI
KUVANDIKOVICH

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-121-92-7-95-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Aholining muammolarini yechish yoʻnalishlari, “Sayxunbod tajribasi”ni samarali joriy etish hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish va ularning mas’uliyatini oshirish boʻyicha 2024-yil yakuniga qadar amalga oshiriladigan ChORA-TADBIRLAR REJASI**

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| **“Sayxunbod tajribasi”ni joriy etish yoʻnalishida** ***(Mas’ul- tumandagi tijorat banklar)*** | | | | | |
| 1 | Tumanning barcha mahallalarida tijorat banklari tomonidan tadbirkorlar bilan uchrashuvlar oʻtkazish. | 1. Uchrashuvlarda tadbirkorlar tomonidan koʻtarilgan muammo va takliflarni hal etgan holda ularga yanada qulayliklar yaratish. | 2024-yil davomida | - | Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari, barcha tijorat banklari, tuman sektor rahbarlari |
| 2 | Tumanda hokim yordamchilari bilan birgalikda har bir mahalladan oʻrtacha 15 tadan kichik tadbirkorlik va biznes loyihalariga kredit ajratish, konsultatsiya va koʻmaklar berish. | 1. Har bir mahallada namunali loyihalarni aniqlash.<br>2. Istiqbolli biznes loyihalariga kredit ajratish, konsultatsiya va koʻmaklar berish. | 2024-yil davomida | Tijorat bank kreditlari | Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari, tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi, tumandagi tijorat banklari, tuman sektor rahbarlari |
| 3 | PQ-306-sonli qarorga asosan ajratiladigan kreditlarni jadallashtirgan holda, har bir mahalladan oʻrtacha 5 tadan loyixa | 1. Har bir mahalladan oʻrtacha 5 tadan loyihalarni aniqlash.<br>2. Istiqbolli loyihalarga kreditlar ajratish. | 2024-yil davomida | Tijorat bank kreditlari | Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari, tuman Kambagʻallikni qisqartirish va |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | shakllantirish va kredit ajratish. | | | | bandlikka koʻmaklashish boʻlimi, Markaziy bank va tijorat banklari, tuman sektor rahbarlari |
| 4 | Tumanda 3 ta yaxlit konturda "bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida namunali loyihalarni amalga oshirish. | 1. Tumanda 3 ta yaxlit konturda "bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida namunali loyihalarni tanlab olish.<br>2. Har bir loyiha boʻyicha yetishtirilgan mahsulotlarni sotib oluvchi, sotuvchi, qayta ishlovchi va eksport qiluvchi "Agregatorlar"ga biriktirish. | 2024-yil davomida | - | Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari, tuman kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi, Markaziy bank va tijorat banklari, tuman sektor rahbarlari |
| **"Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish yoʻnalishida *(Mas'ul- Tuman hokimi, sektor rahbarlari)*** | | | | | |
| 5. | Mahallani qoʻllab-quvvatlash kengashlari tomonidan uyushma va davlat tashkilotlarini va "mahalla yettiligi"ni hududiy boʻlinma rahbarlarini **"mahallabay"** amalga oshirayotgan ishlarni muhokama qilib borish. | Tuman mahallani qoʻlla-quvvatlash Kengashlarining **har uch oyda kamida bir marotaba**, tuman mahallani qoʻllab-quvvatlash Kengashlari **har oyda kamida bir marotaba** Uyushma va boshqa davlat tashkilotlari, ularning tegishli hududiy boʻlinmalari faoliyatini baholash va muammolarni kompleks hal qilish yuzasidan hisobotlarni eshitish. | har oyda | - | Oʻzbekiston mahallalari uyishmasi tuman boʻlimi |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **“mahalla yettiligi”**ni samarali faoliyatini tashkil etish borasida chora-tadbirlar va ustuvor vazifalarni belgilab borish. | | | |
| 6. | Mahallalardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirishda doimiy ko‘maklashib borish. | Mahalla budjeti mablag‘larini quyidagi, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning *(noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno)* **10 foizi**;<br>- mahalladan turib ko‘rsatilgan davlat xizmatlari uchun undirilgan yig‘imning **10 foizi**;<br>- mahalladagi hududidagi **2 000 kv. m** bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini elektron onlayn auksion savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag‘lar;<br>- mahallaning mol-mulkini belgilangan tartibda ijaraga berishdan olinadigan mablag‘lar;<br>- mahalliy budjeti prognozining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan;<br>-xorijiy va xalqaro moliya | doimiy | - | Tuman hokimi, tuman sektor rahbarlari |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | | institutlari hamda boshqa xorijiy donorlarning texnik ko‘mak mablag‘lari va grantlari;<br>- jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;<br>- qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar. | | | |
| 7. | **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi doirasida amalga oshiriladigan ishlar samaradorligi oshirish shu jumladan, mahalla hududini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish. | Mahalla hududidagi mavjud bo‘sh yer maydonlarga **“mahalla bog‘lari”** tashkil etish.<br>Aholi xonadonlari tomorqasida mevali daraxt ko‘chatlarini ekish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarni tashkil etish. | - | Sarf-xarajatlar smetasiga asosan | Tuman hokimi, tuman sektor rahbarlari |
| 8. | Tumandagi **62 ta** mahalla fuqarolar yig‘inlarida mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektorlari vakant lavozimlarni munosib kadrlar bilan to‘ldirish. | Mahallalarga munosib kadrlarni tanlab olish uchun tuman va tuman ishchi guruhlarini tuzish. Fuqarolar yig‘ini raisi saylovini tashkil etish va o‘tkazuvchi Ishchi guruhlar faoliyatini jonlantirish.<br>Belgilangan tartibda nomzodlarni shakllantirish.<br>Saylov jarayonlarini adolatli va shaffof o‘tkazilishini | - | - | Tuman hokimi, tuman sektor rahbarlari |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ta’minlash. | | | |
| 9. | Mahalla fuqarolar yig‘inlarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda “mahalla yettiligi”ga yetarlicha sharoit yaratish choralarini ko‘rish. | Mahalla xizmat binolarini joriy, kapital ta’mirga muhtoj shuningdek, yangidan qurib foydalanishga topshirish bo‘yicha 2024-2026 yillarga mo‘ljallangan Reja dasturini ijrosini ta’minlash.<br>“mahalla yettiligi”ni zamonaviy kompyuter jamlanmalari bilan ta’minlash. | - | Sarf-xarajatlar smetasiga asosan | Tuman hokimi, tuman sektor rahbarlari |
| 10. | Raqamlashtirish orqali aholiga mahalladan turib **davlat** va **ijtimoiy xizmatlarni** ko‘rsatish, barcha **davlat organlariga murojaat qilish** va **ma’lumotlarning yagona bazasini yuritilishini ta’minlash.** | **“Raqamli mahalla”** platformasiga ma’lumotlarni kiritilishi hamda shakllantirish ishlarini shu jumladan, Hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi tomonidan alohida yuritilayotgan platformaga kiritilishini nazorat qilish. | - | - | Tuman hokimi, tuman sektor rahbarlari |
| 11. | **“Obod va xavfsiz mahalla tamoyili”** asosida mahallalarni jinoyatchilikdan holi hududiga aylantirish maqsadida tumandagi kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan mahallaning (*har bir mahalla* ***2 tadan*** *kamera,* ***1 ta*** *radiomost,* ***1 ta*** *kabel,* ***1 ta*** *monitor*) kirish va chiqish qismiga bosqichma-bosqich | Video kuzatuv moslamalari o‘rnatilmagan mahallalar ro‘yxatini shakllantirish.<br>Mahallalarning asosiy kirish va chiqish joylariga kuzatuv moslamalari o‘rnatish.<br>Kuzatuv moslamalarini mahalla binosiga integratsiya qilish choralarini ko‘rish. | - | Alohida xisob-kitobga asosan | Tuman hokimi, tuman sektor rahbarlari |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | video kuzatuv moslamalarini o‘rnatish. | | | | |
| 12. | Har bir tumanda **3 nafardan** Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida faol ishtirok etib kelayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish. | tuman Mahalla uyushmasi tuman bo‘limida ishchi guruhlar tuzish.<br>Ishchi guruhlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-fevraldagi 99-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga asosan reyting baholashni o‘tkazish.<br>Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida faol ishtirok etib kelayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish. | - | Hisob kitoblarga ko‘ra | Tuman hokimi, tuman sektor rahbarlari |
| 13. | Mahallada migratsiyada yurgan fuqarolar bilan olib borilayotgan manzilli ishlarning natijadorligi oshirish. | Uzoq muddatga ketgan, erkak, ayol, 18 yoshgacha bo‘lgan fuqarolarning oila a’zolari bilan suhbatlar o‘tkazilib, anketa so‘rovnomalarini to‘ldirish, ketganlar bilan o‘tkazilgan suhbatlar o‘tkazib borish.<br>Migrantlar bilan doimiy aloqada bo‘lib, ularni turmush tarzini o‘rganish va xabar olish.<br>Migratsiyada yurgan fuqarolarning oilalaridan xabar | 2024 yil davomida | - | Ishtixon tumani IIB, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, Migratsiya bo‘limi, tuman sektor rahbarlari |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | | olish va ularni muammolarini bartaraf etish choralarini koʻrish. | | | |
| 14 | Mahalla xodimlarining sohaga doir bilim va malakalarini oshirish, aholi bilan ishlash koʻnikmalarini mustahkamlash. | "Mahalla yettiligi"ni doimiy ravishda tajriba va bilim koʻnikmalarini oʻqitish va boshqa tumandagi mahallalar bilan tajriba almashish ishlarini tashkil etish. | Yil davomida | | Tuman sektor rahbarlari, "mahalla yettiligi"ni tuman boʻlinma rahbarlari |
| **Aholi bandligini ta'minlash va kam ta'minlangan oilalarni kambagʻallik darajasidan chiqarish** ***(Mas'ul – Tuman kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi, tuman hokimi, sektor rahbarlari)*** | | | | | |
| 15 | 2024-yilda doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarga **22 948 ming** nafar aholini band qilish choralarini koʻrish. | 1. Investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga 1006 ming nafar,<br>2. Xizmat koʻrsatishni rivojlantirish hisobiga 9 603 ming nafar,<br>3. Qishloq xoʻjaligi yoʻnalishida 11 460 ming nafar,<br>4. Qurilish sohasida 879 ming nafar aholi bandligi ta'minlanadi. | 2024-yil davomida | Hisob-kitob asosida | Tuman hokimining tegishli oʻrinbosarlari, tegishli boʻlim va tashkilotlar rahbarlari, tuman sektor rahbarlari |
| 16 | Tumanda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash kambagʻallikni qisqartirish yuzasidan 2024 yil 1 yanvar holatiga kambagʻallik darajasi **7,1 foizdan** | 1. Tumanda aholini tadbirkorlik yoʻnalishlariga jalb qilish, aholi bandligini ta'minlash orqali kambagʻallikni qisqartirish choralarini koʻrish. | doimiy | - | Tuman hokimining tegishli oʻrinbosarlari, tuman kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi, tijorat banklari, tuman sektor rahbarlari |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | 2024 yil yakuniga qadar **6,2 foizga** kamaytirish hisobiga natijada 434 ta oila kambag‘allikdan chiqariladi. | 2. Tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan fuqarolarni imtiyozli kredit mablag‘lari ajratish.<br>3. Ishsiz fuqarolarni haq to‘lanadigan korxona va tashkilotlarga joylashtirish. | | | |
| 17 | Tumanda **6 690 nafar** ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish, **1 252 nafar**ni kasbga o‘qitish, **477 nafar**ini haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etish va **477 nafar**iga subsidiya ajratiladi. | 1. Yangi tizimga ishsizlarning ro‘yxatini hududlardagi hokim yordamchilari kiritadi va fuqaro ishga joylashtirilganda, platformaga bu haqdagi ishga qabul qiluvchining buyrug‘ini biriktiradi.<br>2. Ishsizlarga ish beruvchilarni biriktirish. | doimiy | - | Tuman hokimining tegishli o‘rinbosarlari, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, tijorat banklari, tuman sektor rahbarlari |
| 18 | Mahallalarda imkoniyati bor ishsiz oilalarni aniqlagan holda **477** nafar fuqaroni jamoat ishlariga jalb etish. | 1. Haq toʻlanadigan jamoat ishlariga ishga joylashish istagida boʻlgan fuqarolarni “Bandlik xizmati” AT xizmati orqali roʻyxatga olish<br>2. Korxona va tashkilotlarning buyurtmasiga asosan fuqarolarni obodonlashtirish, uy-joy va kommunal obektlarni taʼmirlash, mavsumiy qishloq xoʻjalik ishlariga, nogironlar, keksalar, bemorlar va boshqalarni parvarishlash ishlariga, daraxt ekish va parvarishlash, patronaj xizmati | 2024-yil davomida | **560 mln**.so‘m jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari | Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, tuman hokimligi |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | | va ishlarga jalb qilish;<br>3. Haq toʻlanadigan jamoat ishlariga jalb qilingan ishsizlarga ish haqlarini Jamoat ishlari jamgʻarmasi hisobidan toʻlab berish. | | | |
| 19 | Tumandagi mavjud korxona va tashkilotlardagi boʻsh vakant ish joylariga ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish orqali kambagʻallikni qisqartirish | 1. Mahalla fuqarolar yigʻinidagi hokim yordamchilariga ish soʻrab murojaat qilgan fuqarolarni “Bandlik xizmati” AT orqali roʻyxatga olish;<br>2. Fuqaroga maʼlumoti, mutaxassisligi, mehnat staji va qobiliyatiga qarab mavjud boʻlgan boʻsh ish oʻrinlari va vakant lavozimlarini taklif qilish;<br>3. Fuqaroning roziligi bilan unga ishga joylashtirish uchun yoʻllanma berib, ishga joylashishiga koʻmaklashish. | 2024-yil davomida | - | Tuman kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi, tuman hokimligi |
| 20 | Hokim yordamchilari tavsiyasi asosida aholi va tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish. | 1. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlar doirasida hududlarga ajratilgan mablagʻlarning yillik va oylik limitlarini tuman va mahalla kesimida taqsimlash.<br>2. 2024-yilda jami 78 mlrd. soʻm mablagʻni oilaviy | 2024-yil davomida | Tijorat banklari mablagʻlari | Tijorat banklar |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tadbirkorlik dasturi orqali imtiyozli kredit ajratish. | | | |
| **Doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga chiqib ketgan fuqarolar bilan ishlash** ***(Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tuman filiali)*** | | | | | |
| 21 | Uzoq muddatga chiqib ketgan *(20.05.2024 yil holatiga)* aniqlangan **12,8 ming migrant** *(3 oydan ortiq muddatda O‘zbekiston hududidan tashqarida bo‘lgan)* shaxslar bilan olib borilgan profilaktik chora-tadbirlar, tadbir boshida aniqlangan. | 1. Uzoq muddatga ketgan, erkak, ayol, **18-30 yoshgacha** bo‘lgan fuqarolarning oila a’zolari bilan suhbatlar o‘tkazilib, anketa so‘rovnomalarini to‘ldirish, ketganlar bilan o‘tkazilgan suhbatlar *(skype va b.),*<br>2. Nima sababdan chiqib ketish sabablarini (ishlashga, sayohatga, ziyoratga, davolanish va ta’lim olishga va boshqalar) sabablarini o‘rganish. | 2024-yil davomida | - | Ishtixon tumani IIB, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tuman filiali, tuman sektor rahbarlari |
| 22 | Tumandan chet davlatlarga ishlash uchun ketgan fuqarolar bilan muloqot tizimini yo‘lga qo‘yish hamda qiyin ahvoldagi *(ish haqi 500 dollardan past bo‘lgan, barqaror daromadi bo‘lmagan, ish joyida xavfsizlik normalari ta’minlanmagan)* migrantlarni tumanda sharoit yaratib, vatanga olib kelish choralarini ko‘rish.<br>*Jumladan, Ishtixon tumanida* ***1,4*** | 1. Migrantlarning aniq ro‘yxatini shakllantirish, ular bilan sektor rahbarlari, **“mahalla yettiligi”** vakillari tomonidan suhbatlar o‘tkazish.<br>2. Har bir tumandan chet davlatlarga ishlash uchun ketgan fuqarolar bilan muloqot tizimini yo‘lga qo‘ysin hamda qiyin ahvoldagi migrantlarga sharoit yaratib olib kelish | 2024-yil davomida | - | Ishtixon tumani IIB, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tuman filiali, tuman sektor rahbarlari |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | ***ming nafar*** *fuqarolarni qaytishi va ish bilan ta'minlanishi bo'yicha manzilli tadbirlarni belgilash.* | choralarini ko'rsin. | | | |
| **Aholi kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish** ***(Mas'ul –Tuman hokimi, sektor rahbarlari)*** | | | | | |
| 23 | Sektor rahbarlari tomonidan o'ziga biriktirilgan mahallalarda har oyda kamida to'rt marotaba sayyor qabullar tashkil qilish. | Mahallalarda sektor rahbarlarining sayyor qabullarini o'tkazish bo'yicha grafik ishlab chiqish.<br>Grafik asosida mahallalarda sayyor qabullarni tashkil qilish.<br>Sayyor qabullarda aholi tomonidan bildirilayotgan muammolarni o'rganib chiqib tegishli idora va tashkilotlar bilan birgalikda ularni ijobiy hal etish choralarini ko'rish. | doimiy | Mablag' talab etilmaydi | Tuman sektor rahbarlari, tumandagi idora va tashkilotlar rahbarlari, MFY xodimlari |
| 24 | Aholi murojaatlari va muammolarini aniqlash hamda hal etishda "Mahalla - sektor - Xalq qabulxonasi - mahalla" prinsipi asosida hamkorlik tizimi yo'lga qo'yish. | Fuqarolarni murojaatlarini tahlil qilish bo'yicha ishchi guruh tuzish;<br>Murojaatlarning mazmuniga qarab turkumlashtirish;<br>Murojaatlarda ko'tarilgan masalalar bo'yicha ularni tegishli tashkilotlarga yuborish;<br>Murojaatlarning ijrosi haqida fuqarolarni xabardor qilish. | xar haftada | Mablag' talab etilmaydi | Tuman sektor rahbarlari, tumandagi idora va tashkilotlar rahbarlari |
| 25 | Mahalladagi ijtimoiy soha obyektlaridagi (ta'lim, madaniyat, ma'rifat, sport-sog'lomlashtirish | Mahallada joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktabi, maktabgacha ta'lim | Yanvar-fevral | Tuman mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan | Tuman sektor rahbarlari, tumandagi idora va tashkilotlar |

| № | Tadbir (vazifalar) nomi | Tadbir (vazifalar)ni amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| | muassasalari) mavjud kamchilik va muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish. | tashkilotlari, Bolalar musiqa maktabi, Barkamol avlod bolalar maktablarida mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlab ularni bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish. | | | rahbarlari |
| **Aholi murojaatlari bilan ishlash va hal qilish** ***(Mas’ul –Tuman sektor rahbarlari)*** | | | | | |
| 26 | Joylarda sayyor qabul o‘tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ularda ko‘tarilgan masalalarning ijobiy yechimiga erishish | Joylarda mavjud muammolarni aniqlab, ularni o‘z vaqtida bartaraf etish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, murojaatlar sonining asossiz ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish, ularda ko‘tarilgan masalalarning yechimiga qaratilgan aniq zaruriy tadbirlarni belgilash | 2024-yil davomida | | Tuman sektor rahbarlari, xalq qabulxonasi mudiri, tumandagi idora va tashkilotlar rahbarlari |

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-121-92-7-95-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Ishtixon tumanida 2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda bandligini ta'minlash bo'yicha sektorlar kesimida oyma-oy reja grafik**

| № | Hududlar nomi | Jami | *shu jumladan choraklar va oylar kesimida:* | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 1-chorak | *shundan* | | | 2-chorak | *shundan* | | | 3-chorak | *shundan* | | | 4-chorak | *shundan* | | |
| | | | | yanvar | fevral | mart | | aprel | may | iyun | | iyul | avgust | sentabr | | oktabr | noyabr | dekabr |
| | **Ishtixon tumani** | **22 948** | **2 473** | **399** | **794** | **1 280** | **7 173** | **2 075** | **2 040** | **3 058** | **8 778** | **3 298** | **2 993** | **2 487** | **4 524** | **1 853** | **1 361** | **1 310** |
| **1** | **1-sektor** | **5 568** | **603** | 96 | 192 | 315 | **1 738** | 503 | 496 | 739 | **2 130** | 797 | 727 | 606 | **1 097** | 450 | 329 | 318 |
| **2** | **2-sektor** | **5 920** | **640** | 102 | 203 | 335 | **1 854** | 536 | 528 | 790 | **2 259** | 852 | 767 | 640 | **1 167** | 477 | 349 | 341 |
| **3** | **3-sektor** | **5 567** | **607** | 98 | 193 | 316 | **1 737** | 502 | 495 | 740 | **2 130** | 800 | 724 | 606 | **1 093** | 449 | 330 | 314 |
| **4** | **4-sektor** | **5 893** | **623** | 103 | 206 | 314 | **1 844** | 534 | 521 | 789 | **2 259** | 849 | 775 | 635 | **1 167** | 477 | 353 | 337 |

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-121-92-7-95-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**Ishtixon tumanida 2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda bandligini ta'minlash bo'yicha sektorlar kesimida oyma-oy va tarmoqlar kesimida reja grafik**

| № | Hududlar nomi | Tarmoqlar nomi | Jami | *shu jumladan choraklar va oylar kesimida:* | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 1-chorak | *shundan* | | | 2-chorak | *shundan* | | | 3-chorak | *shundan* | | | 4-chorak | *shundan* | | |
| | | | | | yanvar | fevral | mart | | aprel | may | iyun | | iyul | avgust | sentabr | | oktabr | noyabr | dekabr |
| 1 | 1-sektor | **JAMI** | **5 568** | **603** | **96** | **192** | **315** | **1 738** | **503** | **496** | **739** | **2 130** | **797** | **727** | **606** | **1 097** | **450** | **329** | **318** |
| | | Investitsiya loyihalari | **251** | **15** | 0 | 0 | 15 | **47** | 15 | 15 | 17 | **69** | 19 | 22 | 28 | **120** | 24 | 30 | 66 |
| | | Xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik | **2 327** | **373** | 71 | 140 | 162 | **590** | 174 | 208 | 208 | **746** | 233 | 236 | 277 | **618** | 235 | 197 | 186 |
| | | Qishloq xo'jaligi | **2 772** | **190** | 21 | 46 | 123 | **1 021** | 297 | 247 | 477 | **1 245** | 522 | 443 | 280 | **316** | 171 | 85 | 60 |
| | | Qurilish | **218** | **25** | 4 | 6 | 15 | **80** | 17 | 26 | 37 | **70** | 23 | 26 | 21 | **43** | 20 | 17 | 6 |
| 2 | 2-sektor | **JAMI** | **5 920** | **640** | **102** | **203** | **335** | **1 854** | **536** | **528** | **790** | **2 259** | **852** | **767** | **640** | **1 167** | **477** | **349** | **341** |
| | | Investitsiya loyihalari | **264** | **16** | 0 | 0 | 16 | **50** | 16 | 16 | 18 | **70** | 21 | 24 | 25 | **128** | 26 | 32 | 70 |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik | 2 471 | 396 | 75 | 149 | 172 | 630 | 186 | 222 | 222 | 787 | 246 | 246 | 295 | 658 | 248 | 210 | 200 |
| | | Qishloq xo‘jaligi | 2 955 | 202 | 22 | 49 | 131 | 1 089 | 316 | 262 | 511 | 1 327 | 557 | 472 | 298 | 337 | 183 | 90 | 64 |
| | | Qurilish | 230 | 26 | 5 | 5 | 16 | 85 | 18 | 28 | 39 | 75 | 28 | 25 | 22 | 44 | 20 | 17 | 7 |
| 3 | 3-sektor | JAMI | 5 567 | 607 | 98 | 193 | 316 | 1 737 | 502 | 495 | 740 | 2 130 | 800 | 724 | 606 | 1 093 | 449 | 330 | 314 |
| | | Investitsiya loyihalari | 246 | 15 | 0 | 0 | 15 | 46 | 15 | 15 | 16 | 67 | 19 | 21 | 27 | 118 | 24 | 30 | 64 |
| | | Xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik | 2 326 | 374 | 72 | 140 | 162 | 590 | 174 | 208 | 208 | 747 | 233 | 235 | 279 | 615 | 234 | 197 | 184 |
| | | Qishloq xo‘jaligi | 2 775 | 192 | 22 | 46 | 124 | 1 023 | 297 | 246 | 480 | 1 243 | 522 | 442 | 279 | 317 | 170 | 87 | 60 |
| | | Qurilish | 220 | 26 | 4 | 7 | 15 | 78 | 16 | 26 | 36 | 73 | 26 | 26 | 21 | 43 | 21 | 16 | 6 |
| 4 | 4-sektor | JAMI | 5 893 | 623 | 103 | 206 | 314 | 1 844 | 534 | 521 | 789 | 2 259 | 849 | 775 | 635 | 1 167 | 477 | 353 | 337 |
| | | Investitsiya loyihalari | 245 | 3 | 0 | 0 | 3 | 44 | 13 | 13 | 18 | 71 | 20 | 32 | 19 | 127 | 25 | 32 | 70 |
| | | Xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik | 2 479 | 405 | 79 | 150 | 176 | 633 | 187 | 223 | 223 | 787 | 247 | 242 | 298 | 654 | 247 | 210 | 197 |
| | | Qishloq xo‘jaligi | 2 958 | 202 | 22 | 49 | 131 | 1 090 | 317 | 262 | 511 | 1 328 | 556 | 475 | 297 | 338 | 181 | 93 | 64 |
| | | Qurilish | 211 | 13 | 2 | 7 | 4 | 77 | 17 | 23 | 37 | 73 | 26 | 26 | 21 | 48 | 24 | 18 | 6 |

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-121-92-7-95-K/24 -son qaroriga
4-ilova

**2024-yilda “2 million aholini biznesga jalb qilish” bo‘yicha Ishtixon tumanida oyma-oy reja grafik**

| № | Hududlar nomi | Jami | *shu jumladan choraklar va oylar kesimida:* | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 1-chorak | *shundan* | | | 2-chorak | *shundan* | | | 3-chorak | *shundan* | | | 4-chorak | *shundan* | | |
| | | | | yanvar | fevral | mart | | aprel | may | iyun | | iyul | avgust | sentabr | | oktabr | noyabr | dekabr |
| 1 | 1-sektor | **3 871** | **908** | 265 | 337 | 306 | **1 219** | 385 | 434 | 400 | **1 171** | 365 | 424 | 382 | **573** | 178 | 208 | 187 |
| 2 | 2-sektor | **3 420** | **818** | 243 | 303 | 272 | **1 052** | 312 | 395 | 345 | **1 045** | 322 | 384 | 339 | **505** | 154 | 187 | 164 |
| 3 | 3-sektor | **3 752** | **859** | 260 | 311 | 288 | **1 188** | 375 | 425 | 388 | **1 148** | 355 | 415 | 378 | **557** | 177 | 196 | 184 |
| 4 | 4-sektor | **3 768** | **822** | 254 | 299 | 269 | **1 190** | 371 | 431 | 388 | **1 173** | 362 | 423 | 388 | **583** | 179 | 217 | 187 |

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-121-92-7-95-K/24 -son qaroriga
5-ilova

**2024-yilda “2 million aholini biznesga jalb qilish” bo‘yicha Ishtixon tumanida oyma-oy va yo‘nalishlar kesimida reja grafik**

| № | Hududlar nomi | Tarmoqlar nomi | Jami | *shu jumladan choraklar va oylar kesimida:* | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 1-chorak | *shundan* | | | 2-chorak | *shundan* | | | 3-chorak | *shundan* | | | 4-chorak | *shundan* | | |
| | | | | | yanvar | fevral | mart | | aprel | may | iyun | | iyul | avgust | sentabr | | oktabr | noyabr | dekabr |
| 1 | 1-sektor | **JAMI** | **3 871** | **908** | **265** | **337** | **306** | **1 219** | **385** | **434** | **400** | **1 171** | **365** | **424** | **382** | **573** | **178** | **208** | **187** |
| | | **O‘zini o‘zi band qilish hisobiga** | **3 042** | **781** | 227 | 294 | 260 | **913** | 280 | 330 | 303 | **892** | 269 | 329 | 294 | **456** | 137 | 168 | 151 |
| | | **YaTT hisobiga** | **263** | **76** | 22 | 27 | 27 | **76** | 27 | 27 | 22 | **59** | 21 | 21 | 17 | **52** | 18 | 18 | 16 |
| | | **Tadbirkorlik sub’ektlari hisobiga** | **170** | **51** | 16 | 16 | 19 | **50** | 18 | 17 | 15 | **40** | 15 | 14 | 11 | **29** | 11 | 10 | 8 |
| | | **Dehqon xo‘jaliklari hisobiga** | **396** | | | | | **180** | 60 | 60 | 60 | **180** | 60 | 60 | 60 | **36** | 12 | 12 | 12 |
| 2 | 2-sektor | **JAMI** | **3 420** | **818** | **243** | **303** | **272** | **1 052** | **312** | **395** | **345** | **1 045** | **322** | **384** | **339** | **505** | **154** | **187** | **164** |
| | | **O‘zini o‘zi band qilish hisobiga** | **2 783** | **681** | 202 | 255 | 224 | **839** | 240 | 322 | 277 | **861** | 259 | 321 | 281 | **402** | 118 | 150 | 134 |
| | | **YaTT hisobiga** | **286** | **80** | 26 | 27 | 27 | **80** | 27 | 27 | 26 | **70** | 24 | 24 | 22 | **56** | 20 | 20 | 16 |
| | | **Tadbirkorlik sub’ektlari hisobiga** | **192** | **57** | 15 | 21 | 21 | **61** | 21 | 22 | 18 | **42** | 15 | 15 | 12 | **32** | 11 | 12 | 9 |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Dehqon xo'jaliklari hisobiga** | **159** | | | | | **72** | 24 | 24 | 24 | **72** | 24 | 24 | 24 | **15** | 5 | 5 | 5 |
| 3 | 3-sektor | **JAMI** | **3 752** | **859** | **260** | **311** | **288** | **1 188** | **375** | **425** | **388** | **1 148** | **355** | **415** | **378** | **557** | **177** | **196** | **184** |
| | | **O'zini o'zi band qilish hisobiga** | **2 849** | **722** | 219 | 262 | 241 | **854** | 262 | 312 | 280 | **844** | 253 | 311 | 280 | **429** | 134 | 152 | 143 |
| | | **YaTT hisobiga** | **279** | **85** | 25 | 30 | 30 | **85** | 30 | 30 | 25 | **62** | 22 | 22 | 18 | **47** | 16 | 16 | 15 |
| | | **Tadbirkorlik sub'ektlari hisobiga** | **185** | **52** | 16 | 19 | 17 | **50** | 17 | 17 | 16 | **44** | 14 | 16 | 14 | **39** | 13 | 14 | 12 |
| | | **Dehqon xo'jaliklari hisobiga** | **439** | | | | | **199** | 66 | 66 | 67 | **198** | 66 | 66 | 66 | **42** | 14 | 14 | 14 |
| 4 | 4-sektor | **JAMI** | **3 768** | **822** | **254** | **299** | **269** | **1 190** | **371** | **431** | **388** | **1 173** | **362** | **423** | **388** | **583** | **179** | **217** | **187** |
| | | **O'zini o'zi band qilish hisobiga** | **2 829** | **692** | 215 | 253 | 224 | **845** | 253 | 313 | 279 | **854** | 254 | 316 | 284 | **438** | 129 | 168 | 141 |
| | | **YaTT hisobiga** | **275** | **79** | 23 | 28 | 28 | **79** | 28 | 28 | 23 | **63** | 22 | 22 | 19 | **54** | 19 | 19 | 16 |
| | | **Tadbirkorlik sub'ektlari hisobiga** | **178** | **51** | 16 | 18 | 17 | **50** | 18 | 18 | 14 | **40** | 14 | 13 | 13 | **37** | 13 | 12 | 12 |
| | | **Dehqon xo'jaliklari hisobiga** | **486** | | | | | **216** | 72 | 72 | 72 | **216** | 72 | 72 | 72 | **54** | 18 | 18 | 18 |

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-121-92-7-95-K/24 -son qaroriga
6-ilova

**Ishtixon tumanida 2024-yilda xususiylashtirish dasturlariga asosan sotilishi belgilangan davlat ko‘chmas mulki ob’ektlarini ommaviy savdolarga chiqarish reja-grafigi**

| № | Shahar va tumanlar | Jami ob’ektlar soni | *shundan savdoga chiqarish rejasi* | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | **1-chorakda** | **2-chorakda** | **3-chorakda** | **4-chorakda** |
| | **Jami** | **4** | **0** | **1** | **0** | **3** |
| 1 | 1-sektor | 1 | | | | 1 |
| 2 | 2-sektor | | | | | |
| 3 | 3-sektor | 3 | | 1 | | 2 |
| 4 | 4-sektor | | | | | |

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-121-92-7-95-K/24 -son qaroriga
7-ilova

## Ishtixon tumanida 2024-yilda xususiylashtirish dasturlariga asosan sotilishi belgilangan davlat ko‘chmas mulki ob’ektlari ro‘yxati

| **T/r** | **Ob’ektning nomi** | **Tuman (shahar)** | **Manzili** | **Egallagan maydoni (ga)** | **Bino va inshootlar maydoni (m2)** | **Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)** | **Yuqori turuvchi organ yoki tashkilot** | **Savdoga chiqarish muddati** | **Savdoga chiqarish choraklarda** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| *1* | *2* | *3* | *4* | *5* | *6* | *7* | *8* | *9* | *10* |
| | ***1-sektor*** | | | | | | | | |
| **1** | Sobiq Ishtixon maishiy xazmat ko‘rsatish kasb-hunar kolleji | Ishtixon | Ishtixon tumani, “Xalqobod” MFY | 4,6 | 4774,8 | Samarqand davlat Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi | oktabr | 4 |
| ***3-sektor*** | | | | | | | | | |
| **2** | 39-maktabning bo‘sh turgan eski binosi | Ishtixon | Ishtixon tumani, “Damariq” MFY | 0,9 | 1074,9 | Ishtixon tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi | may | 2 |
| **3** | Sobiq Bahrin qishloq xo‘jalik kasb hunar kolleji 1-o‘quv binosi | Ishtixon | Ishtixon tumani, “Bahrin” MFY | 0,3 | 1289,64 | Davlat mulki ob’ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazi viloyat hududiy boshqarmasi | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi | oktabr | 4 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **4** | Sobiq Bahrin qishloq xo‘jalik kasb hunar kolleji 2-o‘quv binosi | Ishtixon | Ishtixon tumani, “Bahrin” MFY | 2,0 | 3884,16 | Davlat mulki ob’ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazi viloyat hududiy boshqarmasi | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi | oktabr | 4 |

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-121-92-7-95-K/24 -son qaroriga
8-ilova

## Ishtixon tumanida 2024-yil davomida xorijdan qaytadigan mehnat migrantlari to‘g‘risida reja-jadval

| **№** | **Tuman nomi** | **Mehnat migratsiyasidan qaytadiganlar** | **Shu jumladan: ayollar (nafar)** | **Shu jumladan: yoshlar (nafar)** | **qaysi davlatdan qaytadi *(tezkor prognoz)*** | | | | | **bandligi ta’minlanishi** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | **Rossiya** | **Qozog‘iston** | **Turkiya** | **Koreya** | **Boshka davlatdan** | **Sanoat korxonalarida** | **qishloq xo‘jaligi ishlarida** | **qurilish ishlarida** | **savdo va boshqa maishiy xizmatlarda, o‘zini o‘zi band qilish hisobiga** | **mustaqil bandlik** |
| **x** | **Jami** | **4 959** | **1 074** | **2 106** | **3 456** | **673** | **328** | **26** | **376** | **379** | **748** | **2 808** | **767** | **157** |
| **№** | Ishtixon tumani | 4 859 | 1 074 | 2 106 | 3 456 | 673 | 328 | 26 | 376 | 379 | 748 | 2 808 | 767 | 157 |